

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.09.2024.I.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

Norboyev Sarvar Azodovich

**KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING BARQAROR
RIVOJLANISHINI MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI (XORAZM
VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in economic
sciences**

Norboyev Sarvar Azodovich. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishini mintaqaviy xususiyatlari (Xorazm viloyati misolida)3

Норбоев Сарвар Азодович. Региональные особенности устойчивого развития малого бизнеса и частного предпринимательства (на примере Хорезмской области).....27

Norboyev Sarvar Azodovich. Regional characteristics of the sustainable development of small business and private entrepreneurship (as an example of Khorezm region)....55

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works59

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.09.2024.I.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

NORBOYEV SARVAR AZODOVICH

**KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING BARQAROR
RIVOJLANISHINI MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI (XORAZM
VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.12 –Mintaqaviy iqtisodiyot

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch - 2025

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Iqt5308 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.urdu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tadjiyev Bexzod Umidjanovich

iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Doschanov Tangribergen

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ibragimov Nodirjon Nusriddinovich

iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.09.2024.I.55.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "_____" soat _____:_____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil 220100, Urganch sh., H.Olimjon ko'chasi 14-uy. Tel.: (998-62) 224-67-00; faks: (998-62)224-57-00; e-mail: info@urdu.uz).

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220100, Urganch sh., H. Olimjon ko'chasi 14-uy. Tel.: (998-62)224-67-00; faks: (998-62)224-57-00; e-mail: arm@urdu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "_____" kuni tarqatildi.

(2025-yil "_____"dagi №_____ raqamli reyestr bayonnomasi).

I. S. Abdullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

T. J. Raximov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD., dotsent

B. Ruzmetov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi birlashgan ilmiy seminar raisi i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon mamlakatlarida kichik biznes va tadbirkorlikni barqaror rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki, kichik biznes va tadbirkorlikni taraqqiy qildirish obektiv zaruratga aylanib, mamlakatlar iqtisodiyotida tadbirkorlik faoliyatini barqaror rivojlantirish imkoniyatlaridan samarali foydalanilmoqda. Bu borada tadbirkorlik subektlari faoliyati rivojlanishi holati o'ziga xos istiqbolli ko'rsatkichlarga egaligi bilan ajralib turadi. Xususan, bu borada AQShda 31,7 mln. nafardan ziyod kichik biznes mavjud bo'lib, ular barcha korxonalarining 99,9 foizini tashkil qiladi¹. Ushbu holatlar bevosita kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishini mintaqaviy xususiyatlarini tadqiq qilishni taqozo qiladi.

Jahonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni samarali rivojlantirish yuzasidan ilg'or xorij mamlakatlar tajribalariga asosan, kichik biznes va subektlari faoliyatining rivojlanish tendensiyalariga xos bo'lgan mintaqaviy xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Bu borada jahon mintaqalarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishini ta'minlash, samaradorligini oshirish hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni samarali va innovatsion rivojlantirishdan iborat bo'lmoqda. Bu esa kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishini tartibga solish va uning samaradorligini baholashni taqozo qiladi.

2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida kichik biznes va tadbirkorlik sohasini mintaqaviy rivojlantirish masalalariga alohida to'xtalib o'tilgan. Ya'ni, ushbu strategiyaning 29-maqсадida “o'sish nuqtalari” va aholining tadbirkorlik faoliyatidagi ixtisoslashuvidan kelib chiqib, tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish lozimligi ta'kidlab o'tilgan². Shunday ekan, mamlakatimiz mintaqalarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishini ta'minlash belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-noyabrdagi “Kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-193-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi ““O'zbekiston - 2030” strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrdagi “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida”gi PF-29-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-yanvardagi “Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-39-son Qarori va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ <https://financesonline.com/entrepreneurship-statistics/>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni. Manba: <https://lex.uz/docs/5841063>

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xorijda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishini mintaqaviy xususiyatlarini tadqiq qilish bilan bog‘liq nazariy-uslubiy masalalar S.Jean-Baptiste, C.Prinsep, A.Shapero, L.Sokol, B.Karlöf, J.Timmons, S.Spinelli³, MDH olimlaridan K.Makkonell, S.Bryu, V.Belenkiy, A.O.Blinov, H.Stevenson, J.Jarrillo-Mossi, V.Kossov⁴ va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlarida o‘z aksini topgan.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishini mintaqaviy xususiyatlarini tadqiq qilish bilan bog‘liq jihatlar S.G‘ulomov, M.Sharifxo‘jaev, T.D.Doschanov, M.Muxammedov, Yu.Urunboeva, D.Rasulev, Sh.Nurullaeva, N.Ro‘zmetova, M.Muminova, D.Nishonboev, A.T.Doschanov va boshqalar⁵ ilmiy tadqiqotlarida yoritilgan.

Ammo, ushbu tadqiqotlarda Xorazm viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishini mintaqaviy xususiyatlarini tadqiq qilishning yetarlicha amalga oshirilmaganligi dissertatsiya ishining maqsadi va vazifalarini belgilash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya mavzusi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

³ By Jean-Baptiste Say. «A treatise on political economy; or The production, distribution, and consumption of wealth» Translated from the fourth edition of the French, by C.R.Prinsep with notes by the translator. // Batoche Books, 2001.; Shapero A., Sokol L. The Social Dimensions of Entrepreneurship. *Encycl. Entrep.* 1982, - p. 72-90. Available online: https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=1497759 (accessed on 6 February 2020).; Karlöf B. (1992). *Strategia biznesu. Koncepcje i modele - Przewodnik [Business strategy. Concepts and models – a guide]*. Biblioteka menedżera i bankowca. Warszawa.; Timmons J.A., Spinelli S. (2007) *New Venture Creation. Entrepreneurship for the 21st Century*. McGraw-Hill International Edition. http://window.edu.ru/app.php/catalog/pdf2txp_page=1

⁴ Макконелл К., Брю С. *Экономика. Принципы, проблемы и политика*. Т. 1. М., 1992. 2., Беленький В.Х. *Предпринимательство и менеджмент: вопросы соотношения и подготовки кадров*. <https://core.ac.uk/download/pdf/38639633.pdf>.; Блинов А.О. *Стратегическое развитие территории и поддержки малого бизнеса*. // Научно-исследовательского центра корпоративного права, управления и венчурного инвестирования Сыктывкарского государственного университета. <http://koet.syktsu.ru/vestnik/2011/2011-4/1/1.htm>; Stevenson H., & Jarrillo-Mossi J. (1986). Preserving entrepreneurship as companies grow. *Journal of Business Strategy*, 7(1), 10-23.; Коссов В.В. *Бизнес-план: обоснование решений*. - М.: ЕУ ВШЭ, 2000. - 272 с.

⁵ G‘ulomov S., Sharifxo‘jayev M. *tahriri ostida. Bozor iqtisodiyoti nazariyasi va amaliyoti*. Darslik. – T.: O‘qituvchi, 2000. – 265 b., Doschanov T.D. *Экономико-экологические основы производства и применения продукции химической промышленности в АПК*. дисс. на соис. докт. экон. наук. - Ташкент, 1990. - 405 с., Muxammedov M.M., Urunboeva Y.P. *Kichik tadbirkorlik va qishloq aholisi bandligi*. Monografiya. - Samarqand: Zarafshon, 2014. - 22-23 b., Rasulev D., Nurullayeva Sh., Ro‘zmetova N., Muminova M. *Biznes-jarayonlarini modellashtirish: O‘quv qo‘llanma*. – T.: IQTISODIYOT, 2019. – 175 b., Nishonboev D.E. *Tadbirkorlik faoliyatining tashqi iqtisodiy faoliyati ko‘rsatkichlari tizimi takomillashtirish*. // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал. №10/2 (107), Хоразм Маъмун академияси, 2023 й. - 51 b., Doschanov A.T. *Innovatsiya sharoitida tadbirkorlik tizimini barqaror rivojlanishining iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash (Xorazm viloyati misolida)*. // Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. - Urganch: UrDU, 2021.

Tadqiqotning maqsadi Xorazm viloyati mintaqasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishini mintaqaviy xususiyatlarini tadqiq qilish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari qo'yilgan maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilangan:

kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni barqaror rivojlanishining obyektiv zarurligi va ahamiyatini asoslash;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni barqaror rivojlanishining tamoyillari va shart-sharoitlarini tadqiq qilish;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni barqaror rivojlanishining xorij tajribasini tahlil qilish;

mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanish holatini tahlil qilish;

mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishini tartibga solish yo'nalishlarini taklif etish;

mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanish samaradorligini baholashni amalga oshirish;

nintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishining anketa-so'rovi natijalari tahlilini amalga oshirish;

mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik barqaror rivojlanishi holatini tahlil qilish va uning innovatsion yo'nalishlarini taklif qilish;

mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanish ko'rsatkichlarini ekonometrik modellashtirish va prognozlashtirish istiqbollarini aniqlashtirish.

Tadqiqot obyekti sifatida Xorazm viloyatining kichik biznes va tadbirkorlik sohasi hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti Xorazm viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishini mintaqaviy xususiyatlarini tadqiq qilish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida statistik tahlil, omilli tahlil, SWOT-tahlil, anketa-so'rovi, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, monografik yondashuv, abstraktlashtirish, modellashtirish va prognozlashtirish kabi usullardan keng foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tadqiq qilishning ko'p bosqichli ($1 \leq TIM \leq N$) kompleks yondashuvi taklif etilgan;

mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik barqaror rivojlanishining milliy (1-daraja), mintaqaviy (2-daraja) va mahalliy (3-daraja) darajalarda baholashning moslashuvchanlik, kumulativ iqtisodiy samaradorlik, tavakkalchilikni tahlil qilish va prototiplash yondashuvi taklif etilgan;

"Triple Helix modeli"ni shakllantirish orqali Urganch shahrida savdo va moliyaviy; Xiva shahrida turizm va xizmat ko'rsatish; Yangibozor, Gurlan, Yangiariq, Tuproqqal'a va Qo'shko'pir tumanlarida qishloq xo'jaligi va ishlab chiqarish; Shovot va Xiva tumanlarida xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish; Urganch tumanida IT va moliyaviy; Xonqa, Hazorasp va Bog'ot tumanlarida ishlab chiqarish va IT kabi tadbirkorlik turlarini tashkil etish asoslangan;

Xorazm viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanish ko'rsatkichlarining 2030-yillarga mo'ljallangan prognoz qiymatlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishining strategik yo'nalishlari belgilab berilgan;

mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik barqaror rivojlanishini ta'minlash tuzilmasi taklif etilgan;

mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanish ko'rsatkichlarini modellashtirish asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiya ishida qo'llanilgan metodologik yondashuvlarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalar orqali, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi, O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi ma'lumotlari va internet manbalari, davriy hisobotlaridan olingani hamda tegishli xulosa va takliflarning amaliyotda sinovdan o'tkazilganligi, olingan natijalarning vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ulardan mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanish mexanizmini ishlab chiqish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishining ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish va uni amalga oshirish dasturlari va strategiyalarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi, hokimliklar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlantirish bo'yicha takliflardan foydalanish, shuningdek oliy o'quv yurtlarida "Kichik biznes va tadbirkorlik", "Mintaqaviy iqtisodiyot" va "Biznes faoliyatini tashkil etish" kabi fanlarni o'qitish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xorazm viloyati mintaqasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishini mintaqaviy xususiyatlarini tadqiq qilishning ko'p bosqichli ($1 \leq \text{TIM} \leq \text{N}$) kompleks yondashuviga asoslangan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi bo'yicha taklif Xorazm viloyat hokimining 2025-yil 12-apreldagi 197-12-0-Q/25-sonli qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 24-iyundagi 06-15-09/6418-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni joriy qilinishi natijasida mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishi yuzasidan aniq maqsadli reja va strategik dasturlarni yaratish hamda shu orqali aholini ish bilan ta'minlash sohasidagi mavjud muammolarini hal qilish imkonini bergan;

mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik barqaror rivojlanishining milliy (1-daraja), mintaqaviy (2-daraja) va mahalliy (3-daraja) darajalarda baholash usuli bo'yicha taklif Xorazm viloyat hokimining 2025-yil 12-apreldagi 197-12-0-Q/25-sonli qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 24-iyundagi 06-15-09/6418-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni joriy qilinishi natijasida mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik barqaror rivojlanishi orqali

iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida yangi ish o'rnini yaratish imkoniyatini 2-4 foizga oshirish imkonini bergan;

“Triple Helix modeli”ni shakllantirish orqali Urganch shahrida savdo va moliyaviy; Xiva shahrida turizm va xizmat ko'rsatish; Yangibozor, Gurlan, Yangiariq, Tuproqqal'a va Qo'shko'pir tumanlarida qishloq xo'jaligi va ishlab chiqarish; Shovot va Xiva tumanlarida xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish; Urganch tumanida IT va moliyaviy; Xonqa, Hazorasp va Bog'ot tumanlarida ishlab chiqarish va IT kabi tadbirkorlik turlarini tashkil etish taklifi Xorazm viloyat hokimining 2025-yil 12-apreldagi 197-12-0-Q/25-sonli qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 24-iyundagi 06-15-09/6418-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni joriy qilish asosida mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishini ta'minlashning optimal strategiyasini ishlab chiqish va shu orqali tadbirkorlik subyektlarini zamonaviy uslublar orqali iqtisodiy samaradorligini oshirish imkonini bergan;

Xorazm viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanish ko'rsatkichlarining 2030-yillarga mo'ljallangan prognoz qiymatlari bo'yicha taklif Xorazm viloyat hokimining 2025-yil 12-apreldagi 197-12-0-Q/25-sonli qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 24-iyundagi 06-15-09/6418-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklif asosida 2030-yilga kelib, mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishini ifodalovchi ko'rsatkichlar ulushini 1,3 barobarga oshirish mumkinligi aniqlangan hamda kelajakda istiqbolli biznes va tadbirkorlik turlarini taraqqiy qildirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda, hamda 9 ta tezislar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiya hajmi umumiy hajmi 127 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda obyekt va predmeti belgilangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatib o‘tilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari asoslangan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi keltirib o‘tilgan.

“Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishining nazariy-uslubiy asoslari” deb nomlangan birinchi bobda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyati va ularning rivojlanish darajasi va xorij tajribalari o‘rganilgan.

Barqaror rivojlanishning eng ustuvor yo‘nalishi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatiga tegishli bo‘ladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik barqaror rivojlanishi iqtisodiyotning taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi daromadini oshirish hamda innovatsiyalarni rag‘batlantirish, raqobat muhitini yaxshilash va iqtisodiy o‘sishni ta‘minlashga xizmat qiladi. Bu borada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni barqaror rivojlanishining obyektiv iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Chunki, aholi bandligini ta‘minlash va daromadlarini oshirish, mamlakat eksport salohiyatini yuksaltirish, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlashda tadbirkorlik, jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanganlik darajasi asosiy omili bo‘lib hisoblanadi⁶.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni barqaror rivojlanishi yuzasidan qator tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu yo‘nalish aslida faoliyat sifatida namoyon bo‘ladi. Xususan, tadbirkorlik - iqtisodiy faoliyatning alohida turi sifatida uning zamirida mustaqil tashabbus, javobgarlik, tadbirkorlik g‘oyasiga asoslangan, foyda olishga yo‘naltirilgan, maqsadga muvofiq faoliyat yotadi⁷. Tadbirkorlik faoliyati foyda olishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Bu holatda tadbirkorlik - bozor ishtirokchilarining tizimli foyda olishga qaratilgan mustaqil tashabbusli xavfli faoliyatidir⁸.

Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishi quyida keltirilgan qator olimlarning tadqiqotlarida o‘z aksini topadi. Shularga asosan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda quyidagi funksiyalar alohida ravishda qo‘shilishi mumkin:

- tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash. Boshqaruv funksiyasi bo‘lgan tadbirkorlik g‘oyalari, tashabbuslari va boshqaruv tajribasini tarqatish.

- tadqiqot va loyiha ishlari. Tadbirkorlikni takomillashtirish, samaradorlikni oshirish va yangi mahsulotlar yetkazib berishni kengaytirish uchun yangi

texnologik jarayonlarni yoki yangi mahsulotlarni ishlab chiqish va amalga oshirish bilan bog‘liq tadbirlar.

⁶ Холиқова О.О. Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlik соҳасини ривожланиш жараёнлари. // Scientific progress, Volume2, Issue6, 2021. - 1494 б.

⁷ Болтабоев М.Р., Қосимова М.С., Эргашходжаева Ш.Ж., Фойибназаров Б.К., Самадов А.Н., Ходжаев Р. Кичик бизнес ва тadbirkorlik. Ўқув қўлланма. - Т.: 2010. - 9 б.

⁸ <https://kerivnyk.info/sociologia-rynku3>

- jamoatchilik bilan aloqalar. Tadbirkorlik va jamoat tuzilmalari yoki ommaviy axborot vositalari o'rtasidagi munosabatlarni amalga oshirish va boshqarish.

Fikrimizcha, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati bevosita turli funksiyalarni amalga oshirishga asoslanadi. Bu turli quyidagi yo'nalishlar bilan namoyon bo'ladi (1-jadval).

1-jadval

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining funksiyalari⁹

Yaratuvchanlik	Tashkiliy	Ijodiy
Moliyaviy resurslar (kapital), inson salohiyati (mehnat kuchi), moddiy-texnik baza	Ishlab chiqarishni tashkil etish, sotish, marketing va reklama	G'oyalarni yaratish, tashabuslardan faol foydalanish va tavakkal qilish qobiliyati

Ushbu funksiyalar iqtisodiyot tarkibini o'zgartirish, uning rivojlanishi va takomillashishini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga qaratiladi. Tejash va barcha resurslardan oqilona foydalanishga ko'maklashish va yuqori samarali ishlash uchun kuchli rag'batlarni ta'minlashga asoslanadi. Shu orqali an'anaviy tuzilmalarni yo'q qilishga olib keladigan va transformatsiyaga yo'l ochadigan innovatsion muhitni yaratish belgilanadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning muhim vazifasi jamiyatni tuzish, mehnat va kasbiy harakatchanlikning yangi usullarini ochish, insonning iqtisodiy sohadagi ijodiy salohiyatini ochib berish, inson psixologiyasida konstruktiv o'zgarishlar qilish va uning kuchini yangi qadriyatlarni yaratishga yo'naltirish asosiy maqsad bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni barqaror rivojlanishidagi asosiy unsurlar quyidagilardan iborat bo'ladi:

- moliyaviy va buxgalteriya boshqaruvi. Unga asosan, investorlar yoki kreditorlar hisobidan kapitalni safarbar qilish, sotishdan olingan foydani to'plash hamda biznes ichida va tashqarisida kapital va foydadan foydalanishni boshqarishga asoslanadi.

- kadrlar bo'limi. Bunda biznes ehtiyojlariga muvofiq tanlash va yollash, ishchilardan foydalanish bilan bog'liq barcha masalalarni hal qilish ta'minlanadi.

- moddiy-texnik yordam. Unda iqtisodiy faoliyat uchun zarur bo'lgan xom ashyo, mashinalar, uskunalar va boshqa materiallarni sotib olish e'tiborga olinadi.


- ishlab chiqarish liniyasi. Bu holatda xom ashyo va boshqa materiallarni biznes mijozlariga sotish uchun mos mahsulot turiga aylantirishga e'tibor qaratiladi.

- marketing. Shu bilan iste'molchilar ehtiyojlarini aniqlash va korxonalar va ularning kontragentlari o'rtasidagi almashinuv jarayonini boshqarish belgilanadi.

Ushbu jihatlarning har biri turli tabiatning ma'lum bir omillarini qamrab oladi.

Fikrimizcha, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning obyektiv rivojlanishi quyidagi unsurlarga ega bo'lishi talab etiladi (1-rasm).

⁹ Muallif ishlanmasi.



1-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanish shartlari¹⁰

Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanish tamoyillari, uning uzoq muddatli, muvaffaqiyatli va iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik jihatdan mas'uliyatli faoliyatini ta'minlashga qaratilgan. Ushbu tamoyillar kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish strategiyasini shakllantirish, qarorlar qabul qilish va faoliyatini amalga oshirishda qo'llanma bo'lib xizmat qiladi. Bu boradagi asosiy tamoyillar quyidagi yo'nalishlarga asoslanadi (2-jadval):

¹⁰ Muallif ishlanmasi.


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanish tamoyillari¹¹

Tamoyillar	Tamoyillar yo'nalishlari
Iqtisodiy barqarorlik	<p>Rentabellik va samaradorlik: Biznesning doimiy ravishda foyda keltirishi, xarajatlarni kamaytirish va mahsulot yoki xizmat sifatini oshirish.</p> <p>Moliyaviy mustaqillik: Kreditga bog'liqlikni kamaytirish, o'z mablag'larini to'plash va investitsiyalarni jalb qilish orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlash.</p> <p>Ilg'or g'oyalarni joriy etish va yangiliklar yaratish: Yangi texnologiyalarni joriy etish</p>
Ijtimoiy barqarorlik	<p>Bandlik imkoniyatlarini oshirish: Yangi ish o'rinlarini tashkil etish va ishsizlik darajasini kamaytirishga qaratilgan faoliyatdir.</p> <p>Munosib ish sharoitlari: Xodimlarga munosib ish haqi to'lash, xavfsiz va qulay ish sharoitlarini yaratish, ularning kasbiy mahoratini oshirishga ko'maklashish.</p> <p>Jamiyatga hissa qo'shish: Mahalliy jamiyatlarga yordam berish, ijtimoiy loyihalarni qo'llab-quvvatlash, xayriya tadbirlarida ishtirok etish.</p> <p>Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish: Sifatli mahsulot va xizmatlar taqdim etish, iste'molchilarning shikoyatlarini ko'rib chiqish va ularni qondirish</p>
Ekologik barqarorlik	<p>Atrof-muhitga ta'sirni kamaytirish: Ishlab chiqarish jarayonlarida atrof-muhitga zarar yetkazadigan chiqindilarni kamaytirish, resurslardan oqilona foydalanish va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish.</p> <p>Ekologik toza texnologiyalar: Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, ekologik toza materiallardan foydalanish va chiqindilarni qayta ishlash kabi ekologik toza texnologiyalarni qo'llash.</p> <p>Ekologik mas'uliyatni oshirish: Xodimlarning va jamiyatning ekologik ongini oshirish, atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan tadbirlarni o'tkazish.</p> <p>Barqaror resurslardan foydalanish: Tabiiy resurslardan oqilona va mas'uliyatli foydalanish, ularning qayta tiklanishini ta'minlash</p>
Boshqaruv barqarorligi	<p>Shaffoflik va hisobdorlik: Biznes faoliyati haqida ochiq va aniq ma'lumot berish, manfaatdor tomonlar oldida hisobdor bo'lish.</p> <p>Etik qadriyatlar: Halollik, adolat, mas'uliyat va hurmat kabi etik qadriyatlarga asoslangan biznes yuritish.</p> <p>Risklarni boshqarish: Biznesga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va ularni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish.</p> <p>Doimiy takomillashtirish - biznes jarayonlarini uzluksiz rivojlantirish va yangi bilim hamda malakalarni doimiy ravishda egallash jarayonidir.</p>
Hamkorlik va tarmoqlararo aloqalar	<p>Hamkorlikni rivojlantirish: Boshqa bizneslar, davlat tashkilotlari, NNT va ilmiy muassasalar bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yish.</p> <p>Tarmoqlararo aloqalarni mustahkamlash: Tarmoqlararo aloqalarni mustahkamlash orqali o'z tajribasi va bilimini boshqalar bilan bo'lishish, yangi imkoniyatlarni topish</p>

¹¹ Muallif ishlanmasi.

Mazkur tamoyillarga rioya qilish orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati biznesning muvaffaqiyatini ta'minlaydi hamda jamiyat va atrof-muhit uchun ham foydali bo'ladi. Bu esa mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Shularga asosan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishini mintaqaviy xususiyatlarini tadqiq qilishning ko'p bosqichli ($1 \leq T \leq N$) kompleks yondashuviga asoslangan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi taklif etiladi (2-rasm).



2-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishini mintaqaviy xususiyatlarini tadqiq qilishning ko'p bosqichli tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi¹²

Natijada, mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishi yuzasidan reja va dasturlarni yaratish mumkin.

Jahonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi tarkibida kichik biznes sohasi alohida ajralib turadi. Ya'ni, jahon tajribasiga ko'ra, kichik biznes, xususan, kichik innovatsion biznesni rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi hamda mamlakatlarda amalga oshirilayotgan siyosiy dasturlarda ham o'z aksini topmoqda. Kichik biznes AQSh, Germaniya, Xitoy, Fransiya, Yaponiya, Italiya kabi rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotni barqarorlashtirishda katta ahamiyat kasb etadi.

“Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanish yo‘nalishlari va o‘ziga xos xususiyatlari” deb nomlangan ikkinchi bobda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanish holati, tartibga solish yo‘nalishlari shuningdek barqaror rivojlanish samaradorligini baholash baholash natijalari tadqiq etilgan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyoti rivojida yetakchi omillardan biri hisoblanadi. Uning yalpi hududiy mahsulot (YaHM)dagi ulushi iqtisodiy faollik, bandlik, ishlab chiqarish hajmi va

¹² Muallif ishlanmasi.

mahalliy budjetga tushumlar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Kichik biznesning barqaror rivojlanish samaradorligini baholashda hududlar kesimidagi o‘zgarishlar alohida ahamiyat kasb etadi. Bu borada mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi boshqa tarmoqlarning taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shishi bilan ajralib turadi. Xususan, bu borada ushbu sohaning hududlar iqtisodiyotida alohida o‘rin egallaydi (3-jadval).

3-jadval

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi ulushi (2010-2024)¹³

Hududlar nomi	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
O‘zbekiston Respublikasi	60,8	60,8	60,9	61,9	64,6	66,8	67,2	64,3	61,9	58,5	57,5	56,9	54,6	54,3	54,3
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	60,7	62,5	62,5	62,7	69,7	63,6	65,6	63,6	60,1	62,9	62,3	61,4	61,8	64,6	65,8
Andijon viloyati	69,1	67,3	68,4	71,3	78,5	83,6	82,1	75,1	69,8	72,4	72,7	74,6	69,6	68,6	69,5
Buxoro viloyati	64,5	70,2	72,1	73,6	77,4	79,3	80,7	81,5	71,2	75,8	76,6	77,1	74,1	72,5	73,0
Jizzax viloyati	79,4	78,3	76,0	78,4	83,0	84,2	86,8	87,1	80,1	84,5	84,1	81,0	78,7	75,3	74,4
Qashqadaryo viloyati	61,0	57,4	60,3	62,2	63,2	66,7	75,7	73,9	58,6	73,2	74,1	71,8	70,0	70,5	71,0
Navoiy viloyati	40,6	46,4	46,2	46,1	51,0	50,4	51,6	44,9	48,3	33,7	27,8	29,2	27,9	28,1	25,1
Namangan viloyati	72,1	72,7	74,9	75,4	78,7	79,8	83,1	82,0	74,6	78,0	76,3	76,2	74,7	74,3	73,4
Samarqand viloyati	80,5	76,8	76,8	78,0	80,2	81,2	82,7	81,6	80,7	76,6	75,0	74,3	70,8	72,3	72,3
Surxondaryo viloyati	74,0	75,1	73,6	74,4	77,4	79,1	83,0	81,8	75,4	79,4	78,0	78,4	77,9	77,4	77,8
Sirdaryo viloyati	74,2	72,0	73,0	73,9	75,1	75,9	80,0	79,8	73,8	72,7	73,0	71,2	67,8	65,9	68,2
Toshkent viloyati	64,0	65,6	62,3	64,3	66,5	67,9	66,5	60,8	64,5	54,0	52,0	48,2	49,4	52,2	53,9
Farg‘ona viloyati	64,9	65,5	63,9	63,6	69,7	73,9	73,5	73,6	65,5	72,4	73,3	72,4	71,6	72,2	73,1
Xorazm viloyati	77,5	74,8	73,6	75,0	77,1	79,4	81,0	80,2	76,2	78,2	77,4	75,8	71,9	72,7	72,3
Toshkent shahri	64,0	58,9	63,5	63,3	66,7	68,1	65,2	67,0	60,7	56,0	53,6	51,1	51,2	51,7	52,4

Ushbu jadval tahliliga asosan, O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha umumiy statistik tahlilga ko‘ra, 2010-yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi iqtisodiy faoliyatdagi ulushi 60,8 % ni tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkich 2015-yilga kelib 66,8 % ga yetib, barqaror o‘shish kuzatilgan. Ammo 2016-yildan so‘ng pasayish tendensiyasi kuzatilib, 2024-yilda bu raqam 54,3 % darajasida barqarorlashgan. Bu holat kichik biznes salohiyatining to‘liq ishga solinmayotgani, yirik biznes subyektlari ulushining ortishi yoki sohadagi institutsional cheklovlar mavjudligidan dalolat beradi. Xususan, Xorazm viloyatida 2010-yildagi ko‘rsatkich 77,5 % ni tashkil qilgan bo‘lib, bu yuqori iqtisodiy faollikdan dalolat beradi. 2024-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 72,3 % ga tushgan bo‘lsa-da, barqaror yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Bu esa ushbu hududda kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining nisbatan faol ishlashini ko‘rsatadi.

Eng yuqori ko‘rsatkichlar Jizzax viloyatida 2016-yilda (86,8 %), Andijon viloyatida esa 2015-yilda (83,6 %) qayd etilgan. Bu hududlarda kichik biznes faoliyatiga qulay institutsional, moliyaviy va infratuzilmaviy sharoitlar yaratilgani ko‘rinadi. Ayni paytda, Navoiy viloyatida 2024-yilda kichik biznesning iqtisodiyotdagi ulushi atigi 25,1 % ni tashkil qilgan. Bu raqam ushbu hududda yirik sanoat subyektlarining ustuvorligi, kichik tadbirkorlikni rag‘batlantirishning sustligi va me‘yoriy-cheklovchi omillarning mavjudligini ko‘rsatadi. Xuddi shunday tendensiya Toshkent shahrida ham kuzatib, bu yerda so‘nggi yillarda kichik biznes ulushi pasayib bormoqda va 2024-yil yakuniga kelib 52,4 foizni tashkil etgan.

Ushbu holatlarni umumlashtirgan holda, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

¹³ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2>

1) Respublikada kichik biznesning iqtisodiyotdagi salmog‘i dastlab o‘sib borgan, ammo 2016-yildan boshlab izchil pasayish kuzatilmoqda. Ayrim hududlar – Jizzax, Andijon, Xorazm viloyatlari – kichik biznesning iqtisodiyotdagi ulushi yuqori bo‘lgan hududlar sifatida ajralib turadi. Bu esa u yerda iqtisodiy faollik va institutsional muhit nisbatan barqaror ekanligini bildiradi. Aksincha, Navoiy viloyati va Toshkent shahrida kichik biznes ulushi past bo‘lib, yirik biznes salmog‘ining ustuvorligi seziladi.

2) Hududlar kesimidagi bu farqlar kichik biznesni barqaror rivojlantirish uchun resurslarni differensial taqsimlash, hududiy soliq va kredit siyosatini optimallashtirish hamda normativ-huquqiy va infratuzilmaviy asoslarni takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Mazkur tahlil natijalari kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanish samaradorligini makroiqtisodiy va hududiy nuqtai nazardan baholash uchun muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Hududiy kesimda yuqori natijalar qayd etilgan viloyatlar qatoriga Samarqand, Andijon, Namangan, Xorazm, Buxoro va Surxondaryo viloyatlari kiradi. Andijon viloyatida esa 2015-2024-yillar davomida bu ko‘rsatkich doimiy ravishda 80 % dan yuqori bo‘lgan. Namangan va Xorazm viloyatlarida ham 2024-yil yakunlariga ko‘ra tegishli ravishda 80,9 % va 78,5 % ko‘rsatkichlar qayd etilgan.

Shu bilan birga, ayrim hududlarda kichik tadbirkorlik subyektlarining bandlikdagi ulushi past darajada qolmoqda. Xususan, Navoiy viloyatida bu ko‘rsatkich 2024-yilda atigi 52,1 % ni, Toshkent shahrida esa 49,4 % ni tashkil qilgan. Bu holat mazkur hududlarda yirik sanoat korxonalarini va davlat sektorining ustuvorligi, shuningdek, kichik tadbirkorlik subyektlari salmog‘ining nisbatan pastligi bilan izohlanadi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari O‘zbekistonning aksar hududlarida aholini ish bilan ta‘minlashda muhim o‘rin tutmoqda. Ayniqsa, Samarqand, Andijon, Namangan va Xorazm viloyatlarida bu sektor ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka sezilarli hissa qo‘shmoqda. Past ko‘rsatkichlarga ega hududlarda esa kichik tadbirkorlikni rag‘batlantirish va ularning bandlikdagi ulushini oshirish uchun alohida hududiy dasturlar ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

Shular bilan birgalikda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanish samaradorligini baholash uchun turli formulalar va ko‘rsatkichlardan foydalanish mumkin.

Indeksni hisoblash uchun turli xil vazn koeffitsientlaridan foydalanish mumkin, bu esa har bir yo‘nalishning ahamiyatini aks ettiradi. Biroq, samaradorlikni baholashda faqatgina formulalarga asoslanib qolmasdan, balki sifat ko‘rsatkichlari, ekspert baholari va boshqa ma‘lumotlarni ham hisobga olish kerak. Hamda baholash natijalarini tahlil qilish va interpretatsiya qilishda soha xususiyatlarini, bozor sharoitlarini va boshqa omillarni hisobga olish zarur.

Mavjud model bosqichlaridan kelib chiqib, “Tadbirkorlik rivojlanish indeksi” (TRI) ni ishlab chiqish mumkin. Quyida bu indeksning ilmiy asoslari, tarkibiy tuzilishi va hisoblash usuli Xorazm viloyati misolida ko‘rsatilgan. “Tadbirkorlik rivojlanish indeksi”ni hisoblashdan maqsad Xorazm viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish darajasini baholovchi integral indeksni yaratishdan iborat. Ushbu indeks tumanlar o‘rtasidagi solishtirma tahlil, ustuvor yo‘nalishlarni aniqlash va rivojlanishga to‘sqinlik qiluvchi omillarni aniqlashda xizmat qiladi. Shularga asosan, tadbirkorlik rivojlanish indeksi quyidagi asosiy ko‘rsatkichlar asosida

shakllantiriladi. Ushbu tadbirkorlik rivojlanish indeksi quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$TRI = 0.2 \cdot TS + 0.2 \cdot IO + 0.2 \cdot ST + 0.2 \cdot EX + 0.2 \cdot MK$$

Indeks natijalari quyidagi oraliqlarda turli darajalarga ega bo'lishi lozim:

0.80–1.00 – Yuqori daraja (samarali rivojlanish);

0.60–0.79 – O'rtacha daraja (barqaror rivojlanish);

0.40–0.59 – Past daraja (rivojlanishga ehtiyoj bor);

0.00–0.39 – Zaif rivojlangan (intervensiya zarur).

Mazkur formula va natijalari asosida Xorazm viloyati bo'yicha tadbirkorlik rivojlanish indeksining namunaviy qiymatlari quyidagi qiymatlarga teng bo'ldi (4-jadval):

4-jadval

Xorazm viloyati hududlari bo'yicha tadbirkorlik rivojlanish indeksini hisoblash natijalari¹⁴

№	Tuman/ Shahar	Tadbirkorlik subyektlari soni (1000 aholiga)	Ish o'rinlari yaratish darajasi	Soliq tushumlari dagi ulushi	Ekspart salohiyatidagi ishtiroki	Moliyalashtirish imkoniyatlari (kreditga kirish imkoniyati)	Tadbirkorlik rivojlanish indeksi
1	Bog'ot tumani	0.65	0.60	0.58	0.74	0.82	0.68
2	Gurlan tumani	0.70	0.65	0.60	0.65	0.80	0.68
3	Qo'shko'pir tumani	0.60	0.65	0.55	0.50	0.85	0.63
4	Urganch tumani	0.72	0.65	0.63	0.76	0.84	0.72
5	Xazorasp tumani	0.76	0.69	0.70	0.90	0.88	0.79
6	Tuproqqa'la tumani	0.53	0.49	0.52	0.53	0.48	0.51
7	Xonqa tumani	0.72	0.73	0.76	0.88	0.80	0.78
8	Xiva tumani	0.90	0.85	0.80	0.75	0.95	0.85
9	Shovot tumani	0.68	0.62	0.64	0.72	0.62	0.66
10	Yangiariq tumani	0.45	0.50	0.40	0.35	0.55	0.45
11	Yangibozor tumani	0.55	0.60	0.50	0.55	0.65	0.57
12	Urganch shahri	0.94	0.73	0.74	0.92	0.89	0.84
13	Xiva shahri	0.83	0.63	0.68	0.84	0.86	0.77

Ushbu jadvalga asosan, Xiva tumani TRI ko'rsatkichi bo'yicha eng yuqori o'rinda turib, turizm va xizmat ko'rsatish sohaslarida katta iqtisodiy salohiyatga ega. Yangiariq tumanida esa past TRI kuzatildi. Bu yerda agrotexnika sohasida kadrlarga ehtiyoj yuqori, moliyaviy infratuzilma zaif. TRI orqali har bir tumanning kuchli va zaif tomonlari aniqlanib, individual rivojlanish strategiyalari ishlab chiqilishi lozim. Shularga asosan, mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik barqaror rivojlanishining milliy (1-daraja), mintaqaviy (2-daraja) va mahalliy (3-daraja) darajalarda baholash usuli taklif etiladi (5-jadval).

¹⁴ Muallif ishlanmasi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni barqaror rivojlanishini milliy (1-daraja), mintaqaviy (2-daraja) va mahalliy (3-daraja) darajalarda baholash usuli¹⁵

Moslashtirilgan darajalar
1-daraja (Ichki aylana): Mahalliy (tuman, shahar) darajadagi rivojlanish tahlili
2-daraja (O'rta aylana): Mintaqaviy (Xorazm viloyati) darajadagi baholash
3-daraja (Tashqi aylana): Milliy darajadagi strategik muvofiqlik va integratsiya
Kumulativ iqtisodiy samaradorlik
Baholash → Rivojlanish (integratsiya va takomillashtirish)
Har bir darajalarga moslashtirilgan bosqichlar
Maqsadlar, muqobil yo'llar va cheklovlarni aniqlash
Milliy: Davlat strategiyasi, qonunchilik, normativ hujjatlar
Mintaqaviy: Viloyat investitsion dasturlari, infratuzilma imkoniyatlari
Mahalliy: Tumandagi biznes inkubatorlar, xususiy sektor salohiyati
Tavakkalchiliklarni tahlil qilish
Soliq yuki, kredit resurslariga kirish, energiya va yer resurslari bo'yicha xavflar
Mintaqaviy va mahalliy siyosiy, ijtimoiy barqarorlik holati
Prototiplash (sinov mexanizmlari)
Mahalliy: Pilot loyiha (Yangiariq tumanida oilaviy bizneslar)
Mintaqaviy: Xorazm miqyosida sektorlararo bog'liqliklar (turizm va xizmat ko'rsatish)
Milliy: Respublikadagi muvaffaqiyatli tajribalarni moslashtirish
Mahsulotni ishlab chiqish va qo'llash
Startaplarni moliyalashtirish, raqamli platformalarni joriy etish
Biznes-modellarni rivojlantirish (modulli yondashuv bilan)
Baholash va takomillashtirish
KPI (asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari) orqali mintaqaviy va mahalliy darajadagi baholash
Baholashga asoslangan keyingi bosqich rejalashtiriladi

Natijada, mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik barqaror rivojlanishi orqali 10 nafar yangi ish o'rni yaratishga erishiladi.

Xulosa shuki, tadqiqot natijalari asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlanib, ularning o'zaro bog'liqligi empirik va statistik asosda tahlil qilindi. Unga asosan, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatining mavjudligi kichik tadbirkorlikning rivojlanishida hal qiluvchi omil bo'lib hisoblanadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanish samaradorligini baholash kompleks va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u turli ko'rsatkichlar, metodologiyalar va ma'lumot manbalaridan foydalanishni talab etadi.


Samaradorlikni baholash natijalari davlat siyosatini takomillashtirish, dasturlarni optimallashtirish va sohani yanada rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

“Mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanish yo'nalishlari va istiqbollari” deb nomlangan uchinchi bobda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishida ustuvor yo'nalishlari, rivojlanish holati va uning innovatsion yo'nalishlari shuningdek mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanish ko'rsatkichlarini ekonometrik modellashtirish va

¹⁵ Muallif ishlanmasi.

prognozlashtirish istiqbollari haqidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan. Ushbu ma'lumotlar asosida ko'p omilli prognoz ishlab chiqilgan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishida ustuvor yo'nalishlarni aniqlash maqsadida 205 nafar respondent ishtirokida so'rov o'tkazildi. Respondentlarga "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishi qaysi yo'nalishlarda eng muhim deb hisoblaysiz?" degan savol berilib, ularga 3 tagacha javob variantini tanlash imkoniyati yaratildi. So'rov natijalari asosida kichik biznesning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi o'rnini va ahamiyati to'g'risida aniq tasavvur hosil qilish imkoniyati paydo bo'ldi.



3-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishining muhimlik darajasi haqida respondentlar javoblari¹⁶

So'rov natijalari tahliliga ko'ra, 120 nafar respondent (58,5 %) yangi ish o'rinlarini yaratish yo'nalishini eng muhim omil deb hisoblagan. Bu esa kichik biznesning bandlikni oshirishdagi asosiy vosita ekanligini ko'rsatadi. Keyingi o'rinlarda 102 nafar respondent (49,8 %) kambag'allikni qisqartirishni ustuvor yo'nalish deb belgilagan bo'lsa, 94 nafar respondent (45,9 %) viloyat iqtisodiyotini rivojlantirishga e'tibor qaratgan. Ushbu ko'rsatkichlar shuni anglatadiki, respondentlarning aksariyati kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda asosiy vosita sifatida baholamoqda.

Natijaviy tahlildan kelib chiqadigan xulosa shundan iboratki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatda bandlikni oshirish, kambag'allikni kamaytirish, hududiy iqtisodiy faollikni kuchaytirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim vosita sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu yo'nalishlar davlat tomonidan qabul qilinayotgan dastur va siyosiy qarorlar mazmunida ham o'z ifodasini topmoqda.

Xorazm viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining barqarorligi yuqoriligi bois, ushbu soha iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy ko'rsatkichlariga o'z ta'sirini o'tkazadi. Bu borada ushbu soha sanoat (mlrd. so'm), qurilish (mlrd. so'm), bandlik (ming kishi), eksport (mln. AQSh. dollar), import (mln. AQSh. dollar), savdo (mlrd. so'm), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (mlrd. so'm), xizmatlar (mlrd. so'm), yuk tashish (mln. tonna), yuk aylanmasi (mln. tonna-km), yo'lovchi tashish (mln. yo'lovchi) va yo'lovchi aylanmasi (mln. pass.km) kabi ko'rsatkichlar tarkibida alohida o'rinni egallaydi. Unga asosan, 2010-yil va 2024-yilda mos ravishda sanoat hajmi 143,9 va 6106,0 mlrd. so'mga, qurilish hajmi 226,1 va 9680,5 mlrd. so'mga, bandlik

¹⁶ Muallif ishlanmasi.

hajmi 473,4 ming kishi (2010-yilda), eksport hajmi 13,5 va 254,9 mln. AQSh. dollariga, import hajmi 42,4 va 228,9 mln. AQSh. dollariga, savdo hajmi 914,9 va 15571,0 mlrd. soʻmga teng boʻlgan.

Undan tashqari, 2016–2024-yillar mobaynida mintaqaning kichik koʻlamdagi ishbilarmonlik vakillarining rivojlanish tendensiyalari turli makroiqtisodiy koʻrsatkichlar asosida batafsil tahlil qilindi. Tahlillar natijasida aniqlanishicha, ushbu davr mobaynida 18 ta asosiy iqtisodiy indikator boʻyicha olib borilgan tahlillar kichik biznesning hududiy iqtisodiyotdagi mavqei barqaror va izchil oʻsish tendensiyasiga ega ekanligini koʻrsatmoqda (6-jadval).

6-jadval

Xorazm viloyatida 2016-2024-yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishining asosiy iqtisodiy koʻrsatkichlari¹⁷


Koʻrsatkichlar nomi	Oʻlchov birligi	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarining jami YaHMdagi ulushi	foiz	81,0	80,2	76,2	78,2	77,4	75,8	71,9	72,7	72,3
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarining jami mahsulot(ishlar,xizmatlar) eksportidagi ulushi	foiz	38,2	50,2	75,3	89,3	70,2	51,8	58,2	63,4	66,0
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarining jami bandlikdagi ulushi	foiz	82,8	82,2	80,6	80,4	79,3	79,1	78,1	78,5	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarining jami mahsulot(ishlar,xizmatlar) importidagi ulushi	foiz	90,0	94,0	96,0	70,1	71,1	74,7	35,0	40,2	48,6
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi	foiz	85,1	89,9	92,1	76,5	88,7	88,1	89,7	92,2	90,8
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarining jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari(xizmatlari)dagi ulushi	foiz	47,7	42,9	37,1	30,2	30,9	21,8	16,0	16,3	21,0
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarida band boʻlganlar soni	Ming kishi	590,3	599,2	573,4	591,9	567,9	574,3	579,3	609,8	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarining mahsulot(ishlar,xizmatlar) importi hajmi	mln. AQSh. dol	108,9	125,2	163,1	287,9	213,0	213,5	189,1	231,7	228,8
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarining yoʻlovchi tashish hajmi	mln. yoʻlovchi	338,4	347,3	359,3	369,2	352,8	412,0	424,7	435,1	451,9
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarining qurilish ishlari hajmi	mlrd. soʻm	1081,7	1170,9	1687,9	2298,5	2534,6	3725,4	4375,6	7974,3	9680,5
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarining chakana savdo aylanmasi hajmi	mlrd. soʻm	2948,7	3433,4	4176,9	5302,0	7248,9	8280,9	10632,8	12729,1	15571,0
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarining ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari (xizmatlari) hajmi	mlrd. soʻm	1336,5	1746,5	2397,8	2575,5	2971,1	2972,0	2932,5	3521,1	6106,0
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarining qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi mahsulotirini (xizmatlarini) ishlab chiqarish hajmi	mlrd. soʻm	7664,2	9317,8	12676,7	14334,8	16779,4	19699,8	23533,5	26824,2	28941,4
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarining koʻrsatilgan xizmatlar hajmi	mlrd.soʻm	2317,5	2596,8	3149,6	3783,6	4127,2	5390,3	6500,1	16268,6	20698,3
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarining mahsulot(ishlar, xizmatlar) eksporti hajmi	mln.AQSh. dol	36,5	61,6	76,9	131,1	119,0	119,7	143,8	193,0	254,8
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarining yuk aylanmasi hajmi	mln.tonna-km	534,2	573,1	643,5	678,2	643,3	833,8	908,7	879,5	901,5

¹⁷ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2>

